

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING FANLARGA QIZIQISHINI OSHIRISHDA KVEST – TEXNOLOGIYASI

*Umarov Nurbek Irkinovich*

*SamDUKF Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti  
Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim, sport kafedrası  
assistant o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Maqolada ta'limiy kvestlarning turlari, vazifalari tahlil qilingan hamda maqsadi, mazmun-mohiyatiga ko'ra tasnifi keltirilgan.

**Kalit so'zlar.** Boshlang'ich ta'lim, kvest texnologiyasi, sifat, natija, munosabat.

**Аннотация.** В статье рассматривается вопрос об актуальности модернизации содержания подготовки обучающихся младших классов. Проанализированны виды и задачи образовательных квестов, также дана классификация по цели и содержанию.

**Ключевые слова.** Начальное образование, технология квеста, качество, результат, отношение.

**Annotation.** The article discusses the relevance of modernizing the content of training for junior school students. The types and objectives of educational quests are analyzed, and a classification according to purpose and content is also given.

**Keywords.** Primary education, quest technology, quality, result, attitude.

Milliy o'quv dasturlari va davlat ta'lim standartlariga qo'yilgan yangi talablarga ko'ra, matematik ta'limga kompetensiyaviy yondashuv kasbiy, shaxsiy va jamiyatdagi kundalik hayotda uchraydigan holatlarda samarali harakat qilishga imkon beradigan turli ko'rinishdagi malakalarni o'quvchilar


tomonidan egallashni nazarda tutadi. Shu asosida kompetensiyaviy yondashuvda matematik ta'limning asosini amaliy, tadbiiy yo'nalishlarini kuchaytirishga qaratiladi [2].

Katta tezlik bilan uzgarayotgan dunyoda moslashish, unda munosib faoliyat yuritish uchun ta'limning har bir bosqichida ta'lim maqsadi, mazmuni, mohiyati, vazifalari, dasturlari, tashkil qilish shakllari va vositalarini qayta ko'rib chiqilish, aynan shu davr talablari asosida ishlab chiqish vazifalari belgilandi [ 1]. Shu bilan birga u yoki bu bilimga sarmoya kiritayotgan, kelajak avlodga dars berayotgan o'qituvchilarga o'quvchilarida XXI asrning zaruriy kompetensiyalari shakllantirish vazifasi yuklatildi.

Buning uchun o'quvchilar yoshi, qiziqishlari, ijtimoiy muhiti, maqsadlarini inobatga olgan holda darslarni tashkil etish talab etiladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi doimiy ravishda izlanishi, darslariga o'yin elementlarini qo'shishi hamda sinfda do'stona, ijodiy muhitni shakllantirish yo'llarini izlashi lozim.

Darslarda turli ta’lim texnologiyalarining qo‘llash o‘quvchilarda XXI asrning zaruriy kompetensiyalari 4K (Communication, Collaboration, Critical Thinking and Creativity)ni, yani muloqotga kirishish, jamoada ishlash, tanqidiy fikrlash hamda ijodiy yondashish ko‘nikmalarini shakllantirish imkonini beradi.


Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida bilimlarini nomoyon qilish va yangilarini o‘zlashtirish ishtiyoqini beradigan ta’lim texnologiyalaridan biri “kvest-texnologiyasi” hisoblanadi. Kvest ingliz tilidan sarguzasht o‘yin sifatida tarjima qilinadi («Quest» — izlash, «Adventure» — sarguzasht). Kvestda o‘yin ishtirokchilari syujet bo‘yicha harakatlanish uchun aqliy topshiriqlarni bajarishlari va tezkorlikda harakat qilishlari kerak bo‘ladi. O‘yin syujeti oldindan belgilanishi yoki o‘yinchining harakatlariga bog‘liq holda ko‘plab natijalarni berishi mumkin [2; 3]. kvestlarning paydo bo‘lishi o‘tgan asrning 40-yillarida yaratilgan kitob-o‘yinlardan boshlangan, keyinchalik bu o‘yinlar kvest-kitoblar sifatida shakllandi va birinchi personal kompyuterlar paydo bo‘lishi bilan sodda kvest o‘yinlari shaklida ishlab chiqilgan.



**1-rasm. Kvest turlari.**

3-D grafikasi kvestlarning yangi davrini boshlab berdi, ilk bor 2024-yilda Yaponiyada kvest-xonasi ochildi. O‘yinchilar mantiqiy topshiriqlarni bajarib, belgilangan vaqtda xonadan chiqib ketishlari kerak edi. Keyinchalik kvest turli janrlari Amerika Qo‘shma Shtatlari, Osiyo va Yevropada keng tarqaldi [2] (1-rasm).

Kvestning asosiy maqsadi ma’lum bir ketma-ketlikdagi mantiqiy topshiriqlarni bajarish asosida tashkilotchilar tomonidan belgilangan natijaga erishish. Vazifasi esa belgilangan maqsaddan kelib chiqib, o‘yin davomida ishtirokchilarning qobiliyatlari va ijodiy salohiyatini ochib berishdir (2-rasm).



2-rasm. Kvest vazifalari

Kvestning boshqa vazifalari quyidagilar bo‘lishi mumkin:

- kasbni tanlashga yordam berish;
- bilimlarini namoyon qilishga imkon berish;
- ruhiy zuriqishni kamaytirish uchun psixologik yordam ko‘rsatish;
- izlanish jarayonida ijobiy munosabatni shakllantirish;
- mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatini ochib berish;
- o‘yinlar orqali ishtirokchilarni birlashtirish [3].

Ayni vaqtda tasniflanishiga ko‘ra kvestlar yetarlicha ko‘p (1-jadval).

1-jadval. Tasnifiga ko‘ra kvestlar

Kvest tasnifi	Kvest turlari	
Tashkil qilish shakliga ko‘ra	Veb-kvestlar	"Raqobat" turiga ko‘ra veb-kvest
		"Loyiha metodi" turiga ko‘ra veb-kvest
	QR- kvest	
	Media-kvestlar	
	Kombinatsiyalashgan kvestlar	
	Tabiatda kvestlar	
	Kompyuter o‘yinlari	
Axborot ta'lim muhitiga ko‘ra	An’anaviy ta’lim muhiti	
	Virtual ta’lim muhiti	
Platformada o‘tkazilishiga ko‘ra	Saytlar	
	Forumlar	
	Ijtimoiy tarmoqlar	
	Virtual kundalik va jurnallar	
	Google-guruhlar	
	O‘yinli	

<b>Talab qilinayotgan faoliyat turiga ko`ra</b>	Rolli	
	Ijodiy	
	Izlanuvchi	
	Axborotli	
	Tadqiqotli	
<b>Topshiriqlar to`riga ko`ra</b>	Ishontiruvchi	
	Ijodiy topshiriqlar	
	Tahliliy topshiriqlar	
	Kelishuvga erishish	
	Ilmiy izlanishlar	
	Xronologik tekshiruvlar	
	Detektiv, boshqotirmalar	
	Jamlanmalar	
	O`z-o`zini anglash	
	Baholovchi	
<b>Tasnif</b>	Mavzu mazmuniga ko`ra	Mono kvestlar
		Fanlararo kvestlar
	Ish shakliga ko`ra	Bir kishi uchun kvestlar
		Jamoaviy kvestlar
	O`tkazilish tartibiga ko`ra	Real jarayonni ifodalovchi
		Birlashtirilgan rejimda tashkil etiluvchi
		Virtual rejimda tashkil etiluvchi
	Muddatiga ko`ra	Uzoq muddatli
Qisqa muddatli		

Pedagogika fanida “kvest” tushunchasi tadqiqot faoliyatining maxsus tashkil etilgan turi sifatida ta’riflanadi, bunda o’quvchi ma’lumotlarni ma’lum manzillarda izlaydi (haqiqatda) [6]. Kvestni “o’yin” tushunchasi bilan bog’lash mumkin.

O’tgan asrning 60-yillari o’rtalaridan boshlab maktab o’quvchilarini o’qitishning didaktik vositasi sifatida o’quv jarayonida o’yinlardan keng qo’llanila boshlandi hamda didaktik o’yinlar deb ataldi. Didaktik o’yinlar deganda o’rganilayotgan tizimlar, hodisalar va jarayonlarni simulyatsiya qilishni o’z ichiga olgan faol o’quv faoliyati tushuniladi. Bunda har bir ishtirokchi va butun jamoa asosiy muammoni hal qilishda birlashadi va o’z xatti-harakatlarini g’alaba qozonishga qaratib jamoaviy, maqsadli o’quv faoliyatini tashkil etadi [7].

Didaktik o’yinlar muammoli ta’limning o’ziga xos pedagogik texnologiyasi bo’lib, quyidagi tarkibiy elementlardan tashkil topadi:

- o‘quv faoliyatining modellashtirilgan ob'ekti;
- o‘yin ishtirokchilarining birgalikdagi faoliyati;
- o‘yin qoidalari;
- o‘zgaruvchan sharoitlarda qaror qabul qilish;
- qo‘llaniladigan yechimning samaradorligi.

Shunday qilib, didaktik o‘yinlarni pedagogik texnologiya deb hisoblash mumkin, chunki ular quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- 1) ma'lum bir pedagogik maqsad uchun ishlab chiqilgan, ya'ni bilimlarni yanada samaraliroq uzatish imkoniyatiga ega;
- 2) harakatlar, operatsiyalar, aloqalar zanjirini ifodalaydi va aniq kutilgan natija shakliga ega bo‘lgan maqsadga muvofiq ravishda qurilgan;
- 3) insoniy va texnik imkoniyatlarni optimal amalga oshirish, individuallashtirish va farqlash, dialogik muloqot tamoyillarini hisobga olgan holda o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro bog‘liqlikdagi faoliyati;
- 4) texnologiya sifatida takrorlanishi va barcha o‘quvchilar tomonidan rejalashtirilgan natijalarga erishish kafolatining mavjudligi;
- 5) ham individual, ham jamoaviy bo‘lishi mumkin;
- 6) texnik-o‘qitish vositalarini qo‘llash orqali o‘quvchilarning o‘z-o‘zini nomoyon qilishi osonlashadi;
- 7) faoliyat natijalarini o‘zgartirish uchun mezonlar, ko‘rsatkichlar va vositalarni o‘z ichiga olgan diagnostika bosqichlarining mavjudligi [6].

Kvest texnologiyalari ta’limiy, rivojlantiruvchi va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, o‘yinchidan zukkolik va aql-zakovatni talab qiladigan mantiqiy masalalar va jumboqlarni hal qilishni talab qiladi. Shunday qilib, o‘quv jarayonida kvest texnologiyalaridan foydalanganda o‘quvchilar mavjud bilimlar bazasidan foydalanadilar, olingan birlamchi ko‘nikmalarni amaliyotda qo‘llaydilar va o‘z xulosalarini shakllantiradilar.

Tadqiqot ishimiz davomida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kvest-texnologiyasidan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida matematika fani misolida kvestlar ishlab chiqildi va tajriba-sinov guruhlarida tadbiq etildi. Bizning fikrimizcha, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fanlarga bo‘lgan qiziqishini oshirish, o‘z bilimlarini nomoyon qilish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun darsda va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda kvestlarni qo‘llash maqsadga muvoffiq.

#### **Foydalangan adabiyotlar ro‘yhati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-sonli “2022-2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida” farmoni. <https://president.uz/oz/lists/view/5199>
2. Umumiy o‘rta ta’limning matematika fani milliy o‘quv dasturi. T. 2022.

3. Осяк С.А., Султанбекова С.С., Захарова Т.В. Образовательный квест — современная ин-терактивная технология // Современные проблемы науки и образования. 2015. № 1–2. URL:
4. Быховский Я. С. Образовательные веб-квесты [Электронный ресурс] / Я.С.Быховский // Информационные технологии в образовании-99. <http://ito.edu.ru/1999/III/1/30015.html>
5. Утегенов Р.А. Квесты: типология, спортивные аспекты и перспективы развития // Эколо-гия России: на пути к инновациям: межвузовский сборник научных трудов / сост. Т.В. Ды-мова. Астрахань: Издатель: Сорокин Роман Васильевич, 2016. Вып. 14. С. 22–25.
6. Дмитриева Е.В. Квест как одна из деятельностных форм организации образовательного процесса ДООУ в рамках реализации ФГОС ВО. URL: <http://imc-peterhof.spb.ru/stati/materialy/kvest-kak-odnaiz-deyatelnostnykh-form-organizatsii-obrazovatel'nogo-protsesssa>
7. Воробьева М.А., Кузнецова И.Н., Фомичева Е.А. Образовательный квест - современная интерактивная технология // Актуальные проблемы преподавания в начальной школе. Кирюшкинские чтения Материалы Всероссийской научно-практической конференции/2017. С. 93-96.
8. Абрамова И.Г. Активные методы обучения в системе высшего образования. М.: Гардарики, 2008. 103 с.